

34
71-45.

Teshabayeva Zamira Sobirovna

BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLLIYATGA O'RGATISH



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество преданных
взыск

--	--

39
11.45.

OLIV VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Teshabayeva Zamira Sobirovna

BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLİYATGA O'RGATISH

Darslik

Ta'lim yo'nalishi: 5111800 - Maktabgacha ta'lim

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TALIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
«MALIK PRINT CO» TALIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
2021
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
2-FILIALI

UO'K 373.21(07)
KBK 74.100.58ya7
T 45

Mas'ul muharrir:

Sh.Q.Mardonov - Pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

M.T.Mirsoliyeva – Nizomiy nomidagi TDPI
"Maktabgacha ta'lim" fakulteti dekani, pedagogika fanlari
doktori.

F.U. Jumanova – TVChDPI pedagogika va menajment kafedras
dotsenti, p.f.n.

Mazkur darslikda "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" fanining asosiy masalalari, uning nazariy-metodologik asoslari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatishning mazmun mohiyati, tamoyillari shakl va usullari nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Shuningdek, darslikda bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning kasbiy motivatsiyasini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy hamda umuminsoniy qadriyatlarining mohiyatini bilishi, bolalarni Vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'z oilasiga bo'lgan muhabbatini shakllantirishning samarali yo'llari keltirilgan.

Darslikda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda kvalimetrik kompetensiyaning o'rni va ahamiyati, ularning adabiyotga, san'atga qiziqishi va xalqimizning boy madaniy merosiga nisbatan hurmatli tarbiyalash hamda bolalarda ijodkorlikni shakllantirishda oila, maktab va mahalla bilan hamkorlik ishlarini amalga oshirishga olib ko'nikma va malakalarni hosil qilish vazifalari yoritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18 avgustdagi 356-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida nashr etishga ruxsat etildi.

ISBN 978-9943-7652-7-6

MUNDARIJA

MUNDARIJA	5
1-HOJ. BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLIVATGA O'RGATISH FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI QO'G'IRCHOQ TEATRINING PAYDO BO'LISH TARIXI	8
1.1. Jahon qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi, tarixiy jihatlari va tarbiyaviy ahamiyati	8
1.2. O'zbek qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi tarixi	15
1.3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatining maqsadi va vazifalari	26
1.4. Maktabgacha ta'lim tashkiloti turli yosh guruhlarida sahnalashtirish faoliyatining asosiy vazifalari	31
2-HOJ. SAHNALASHTIRISH FAOLIVATI JARAYONIDA BOLALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING METODLARI	40
2.1. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodiy faoliyatni shakllantirish	40
2.2. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish metodlari	46
2.3. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda aktyorlik qobiliyatini rivojlantirish	55
3-HOJ. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH FAOLIVATINI TASHKIL ETISH	62
3.1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari	62
3.2. Sahnalashtirish faoliyati prinsiplari	64
3.3. Maktabgacha ta'lim tashkilotida "Syujetli rolli o'yinlar va drammatizatsiya markazi"ni tashkil qilish	66
4-HOJ. MAKTABGACHA YOSHDAKI BOLALARDA QO'G'IRCHOQ TEATRI ERSONALLARINI YASASH ORQALI BADIIV IJODIY QOBILIVATLARINI SHAKLLANTIRISH VA QO'G'IRCHOQ YASASH USULLARI	73
4.1. Stiol teatri va barmiq teatri ularning turlari	73

§ 12. Qo'g'irchoq raqqoslar va qo'g'irchoq marionetkalar	75
§ 13. Qo'l qo'g'irchoqlari va katta qo'g'irchoqlar	77
§ 14. Soya teatr	78
§ 15. Niqoblar teatri va jonli qo'g'irchoqlar (dekoratsiyalar)	80
Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish fani bo'yicha izohli lug'at	88
Adabiyotlar:	93

KIRISH

Hugungi kunda dunyo hamjamiyati barcha sohalarida, jumladan ta'lim tizimida ko'p qirrali o'zgarishlar bo'lib o'tmoqda, bu esa o'z navbatida bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning yangicha tafakkur va dunyo qarashini shakllantirishni taqozo etmoqda. Yurtimizda ta'lim tizimini takomillashtirish hujjatlarida ijodkorlik sifatleri ta'lim mazmunini yangilashning muhim bir konseptual holati deya e'tirof etilmoqda. Ta'lim tizimida ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish uchun real hayotda va kasbiy amaliyotda asosiy kompetentligini qo'llash qobiliyatiga ega bo'ladigan maktabgacha ta'lim yo'nalishi pedagog-tarbiyachilarini tayyorlash zarur vazifalardan biridir.

2017-2021-yillarga mo'ljallangan «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va tashkiliy ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonun¹g 4-moddasida har bir bolaning iste'dodi talonlari, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi keltirilgan².

2017-yilning 16-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish hamda mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik

¹ «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, O'RKQ-595-son 16.12.2019

hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentabrda
«Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-
tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-sonli Qarori, 30-sentabrda
«Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish
chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-sonli Farmoni qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31
dekabrda «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va
uni amalga oshirish chora tadbirlari» to'g'risida 1059-son qarorida
«Tarbiyachi va ota-onalar tomonidan bolalarga asosiy faoliyat tirlari
jarayonida o'zini o'zi anglashga o'rgatish, mulqot, kuzatish, taqlid
orgali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasini o'zlashtirish, faoliyat
va syujeti-rolli oyinlar orgali yangi motivlarni paydo qilish va
mustahkamlash, milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning
ilgor yutuqlaridan samarali foydalanish orgali milliy umuminsoniy
qadriyatlar o'rgatish vazifalari qo'yildi»¹

Maktabgacha yosh-shaxsning dastlabki kamol topish davridir
Har bir bola shaxsining rivojlanishi, jumladan ijodiy qobiliyatlarini
shakllantirishda uni adabiyotga, san'atga qiziqish va xalqimizning boy
madaniy merosiga nisbatan hurmatni tarbiyalash vazifalarini amalga
oshirishda pedagog yetakchi ro'l o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi
bolalarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyaning turli
metodlarini qo'llash va «Ilk qadam» davlat o'quv dasturida belgilab
berilganidek, o'quv tarbiyaviy faoliyatning o'zaro uyg'unligini
ta'minlash, ularni o'yin tarzida tashkil etish lozim².

«Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish» fani
talabalarda pedagogik ijodkorlik hamda pedagogik kvalimetriya
kompetensiya sifatlarini shakllantirishga zamin yaratadi. Chunki,
sahnalashtirish faoliyatida tahlil, sintez, qiyoslash va taqqoslash
jarayonlari amalga oshiriladi. Bo'lajak tarbiyachilarda kvalimetrik
kompetensiyani rivojlantirishda ta'lim jarayonini maqsadga
muvofiq tashkil etish va boshqarishni rejalashtirish, o'quv jarayonini
modernizatsiyalash, mazkur jarayonni metodik va texnik jihatdan
ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

¹ «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish
chora tadbirlari» to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
1059-son qarori 31.12.2019

² «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi. T.: 2018.

«Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish» fani
maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila bilan hamkorlikni amal-
ga oshirishning samarali yo'llarini ko'zda tutadi. Mazkur o'quv
qo'llanma maktabgacha ta'lim yo'nalishi tizimida faoliyat ko'rsa-
tayotgan pedagoglar, uslubchilar, oliy ta'lim muassasalarining
maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ilmiy-uslubiy manba
bo'lib xizmat qiladi.